

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISH QONUNIYATLARINING MULTIPLIKATIV TAHLILI

Samadova Go‘zal Solik qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy Universiteti talabasi

Normurodov Husan

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy Universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston sanoat tarmoqlari rivojlanish qonuniyatlari multiplikativ tahlil usuli asosida o‘rganildi. Tadqiqotda sanoat mahsuloti hajmi, mehnat unumdorligi, bandlik va qo‘shilgan qiymat o‘rtasidagi omiy bog‘liqliklar aniqlangan. Tahlil natijalari sanoat o‘shishida intensiv omillarning ustuvorligi mavjudligini ko‘rsatgan. Qayta ishlash sanoati ulushi ortgani hamda investitsiya omilining yuqori samaradorligi aniqlangan. Sanoat rivojlanishida tarkibiy siljishlar va tarmoqlararo integratsiya jarayonlari kuchaygani asoslangan. Natijalar sanoatni modernizatsiya qilish, resurs samaradorligini oshirish va yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarishni kengaytirish zarurligini ko‘rsatgan.

Kalit so‘zlar: sanoat tarmoqlari, multiplikativ tahlil, mehnat unumdorligi, qo‘shilgan qiymat, tarkibiy o‘zgarishlar, investitsiya, iqtisodiy o‘shish

Аннотация

В статье исследованы закономерности развития отраслей промышленности Узбекистана на основе метода мультипликативного анализа. В ходе исследования определены факторные взаимосвязи между объемом промышленного производства, производительностью труда, занятостью и добавленной стоимостью. Результаты анализа показали преобладание интенсивных факторов в росте промышленности. Установлено увеличение доли обрабатывающей промышленности и высокая эффективность инвестиционного фактора. Обосновано усиление структурных сдвигов и межотраслевой интеграции. Полученные результаты подтвердили необходимость модернизации промышленности, повышения ресурсоэффективности и расширения производства с высокой добавленной стоимостью.

Ключевые слова: отрасли промышленности, мультипликативный анализ, производительность труда, добавленная стоимость, структурные изменения, инвестиции, экономический рост

Abstract

The article examined the development patterns of industrial sectors in Uzbekistan using a multiplicative analysis approach. The study identified factor relationships between industrial output, labor productivity, employment, and value added. The results demonstrated the dominance of intensive factors in industrial growth. An increase in the share of the manufacturing sector and high efficiency of the investment factor were identified. Structural shifts and strengthening of intersectoral integration

processes were substantiated. The findings indicated the necessity of industrial modernization, improvement of resource efficiency, and expansion of high value-added production.

Keywords: industrial sectors, multiplicative analysis, labor productivity, value added, structural change, investment, economic growth

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmoqlari iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi hamda milliy ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Sanoatning rivojlanishi mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmining ortishi, eksport tarkibining kengayishi va hududlar iqtisodiy salohiyatining mustahkamlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar natijasida tarmoqlararo tarkibiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu jarayon, ayniqsa, qayta ishlash sanoati, energetika hamda tog‘-kon yo‘nalishlarida yaqqol kuzatilmoqda.

Mazkur sharoitda sanoat tarmoqlarining rivojlanish qonuniyatlarini omillar kesimida chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Chunki sanoatdagi o‘shish faqat umumiy ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki mehnat unumdorligi, bandlik darajasi, kapital samaradorligi va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik orqali shakllanadi. Shu sababli iqtisodiy natijalarning shakllanish mexanizmini aniqlashda multiplikativ tahlil yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekiston sanoat tarmoqlarining iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish, asosiy omillarning ishlab chiqarish natijalariga ta’sirini aniqlash hamda sanoat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib, tadqiqot davomida sanoat tarmoqlarining tarkibiy holati va ularning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni ilmiy yondashuv asosida yoritiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston sanoat tarmoqlarining iqtisodiy rivojlanishi, tarkibiy o‘zgarishlari hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Jumladan, B. Abdukarimovning iqtisodiy tahlilga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish natijalarini baholashning omilli usullari batafsil yoritilgan bo‘lib, unda mehnat unumdorligi, asosiy vositalardan foydalanish darajasi hamda ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida izohlanadi. Muallif sanoat natijalarini tahlil qilishda omillarni alohida ajratib baholash boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi [1].

G.V. Savitskayaning iqtisodiy tahlil bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarida multiplikativ modellarning nazariy asoslari keng bayon etilgan. Xususan, ishlab chiqarish hajmini mehnat unumdorligi va bandlar soni orqali ifodalash, rentabellik ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq omillarni bosqichma-bosqich aniqlash usullari sanoat tarmoqlarini tahlil qilishda samarali metod sifatida tavsiya etiladi [2].

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlarida sanoat

ishlab chiqarishining so‘nggi yillardagi dinamikasi, qayta ishlash sanoati ulushining ortishi, energetika va tog‘-kon tarmoqlaridagi o‘shish sur‘atlari statistik jihatdan aks ettirilgan. Ushbu ma‘lumotlar hududlar kesimida sanoat rivojlanishidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi [3].

The World Bank hisobotlarida O‘zbekiston sanoatini modernizatsiya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlovchi muhim yo‘nalish sifatida baholanadi. Hisobotlarda sanoatni diversifikatsiya qilish eksport salohiyatini oshirish bilan chambarchas bog‘liqligi qayd etilgan [4].

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tahliliy materiallarida esa sanoat tarmoqlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va texnologik yangilanish jarayonlarining iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri ko‘rsatib berilgan [5].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sanoat tarmoqlarining rivojlanish qonuniyatlarini multiplikativ yondashuv asosida chuqur o‘rganish, ayniqsa omillarning o‘zaro ta‘sirini aniqlash nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston sanoat tarmoqlarining rivojlanish qonuniyatlarini multiplikativ tahlil asosida o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda iqtisodiy nazariya, sanoat iqtisodiyoti va statistik tahlil usullari birgalikda qo‘llanadi. Ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi, bandlik darajasi, qo‘shilgan qiymat va rentabellik kabi asosiy ko‘rsatkichlar multiplikativ model orqali omillariga ajratilib tahlil qilinadi. Shu yo‘l bilan tarmoqlar o‘shishining asosiy omillari va tarkibiy o‘zgarishlari aniqlanadi.

Tadqiqot jarayonida Davlat statistika qo‘mitasi va boshqa rasmiy manbalar asosiy ma‘lumotlar sifatida ishlatiladi. Ushbu metodologiya nazariy bilimlarni amaliy tahlil bilan uyg‘unlashtirib, sanoat tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha asosli tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. Shu bilan birga multiplikativ model sanoat siyosatini takomillashtirish va iqtisodiy barqarorlikni oshirish yo‘llarini aniqlashda ilmiy asos vazifasini bajaradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat - milliy iqtisodiyotning tayanch tarmog‘i bo‘lib, u yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda strategik ahamiyatga ega. Sanoatning iqtisodiy mohiyati ishlab chiqarish resurslarini oqilona taqsimlash, mehnat unumdorligini muntazam oshirish va innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashdan iborat. O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmoqlari tarkibiy jihatdan uchta yirik guruhga: tog‘-kon sanoati, qayta ishlash sanoati hamda energetika tarmoqlariga bo‘linadi.

Sanoat rivojlanishining muhim qonuniyatlaridan biri - bu tarmoqlararo bog‘liqlik bo‘lib, u ishlab chiqarish jarayonida resurslarning ketma-ket uzatilishi va har bir bosqichda qo‘shilgan qiymat hosil bo‘lishi orqali namoyon bo‘ladi. Zamonaviy

sharoitda sanoatning rivojlanishi faqat ishlab chiqarish hajmining miqdoriy ortishi bilan emas, balki tarkibiy siljishlar, ya'ni qayta ishlash sanoati ulushining izchil o'sib borishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon iqtisodiyotning xomashyo yo'nalishidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tishini va tashqi bozorda raqobatbardoshlikning oshishini ta'minlaydi.

Ushbu murakkab jarayonlarni miqdoriy jihatdan baholashda multiplikativ tahlil metodologiyasi alohida o'rin tutadi. Multiplikativ modelning asosi shundaki, unda natijaviy ko'rsatkich bir nechta o'zaro bog'liq omillarning ko'paytmasi sifatida ifodalanadi. Sanoat iqtisodiyotida ushbu metodologiya quyidagi yo'nalishlarda qo'llaniladi:

Ishlab chiqarish hajmi mehnat unumdorligi va band bo'lgan xodimlar sonining o'zaro bog'liqligi orqali shakllanadi.

Qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi esa ishlab chiqarish hajmi va tarmoqning rentabellik darajasi ko'paytmasi sifatida aniqlanadi.

Bunday uslubiy yondashuv sanoat samaradorligining o'zgarishi qaysi omil (intensiv yoki ekstensiv) hisobiga yuzaga kelayotganini aniq kvantifikatsiya qilish imkonini beradi. Masalan, mehnat unumdorligining oshishi mavjud ishchi kuchi bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqarishni anglatib, sanoatning sifat jihatidan rivojlanish qonuniyatini aks ettiradi. Shu bois, multiplikativ model sanoat siyosatini takomillashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval.

O'zbekiston sanoatining rivojlanish dinamikasini¹

Yillar	Sanoat mahsuloti hajmi (trln so'm)	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda	Qayta ishlash sanoati ulushi, foizda	Mehnat unumdorligi o'sishi, foizda
2018	228,9	110,6	80,3	105,4
2021	451,6	108,7	82,1	106,2
2023	655,8	106,0	84,4	107,5
2025	1100,0	105,8	86,0	108,9

O'zbekiston sanoat tarmoqlarining 2018-2025-yillardagi ko'rsatkichlari dinamikasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida sanoat rivojlanishining sifat jihatidan yangi qonuniyatlari shakllanmoqda. Jadval ma'lumotlarini multiplikativ yondashuv asosida quyidagicha tahlil qilish mumkin:

O'zbekiston sanoat tarmoqlarining 2018-2025-yillardagi ko'rsatkichlari dinamikasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida sanoat rivojlanishining sifat jihatidan yangi qonuniyatlari shakllanmoqda. Jadval ma'lumotlarini multiplikativ yondashuv asosida tahlil qilganda, birinchi navbatda ishlab chiqarish hajmining multiplikativ o'sishi kuzatiladi. Sanoat mahsulotlari hajmining 2018-yildagi 228,9 trln so'mdan 2025-yilda 1100 trln so'mga yetishi kutilayotgani ishlab chiqarish quvvatlarining qariyb 4,8 baravarga ortishini anglatadi. Multiplikativ tahlil nuqtai

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining tahliliy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

nazaridan, bu o‘shish faqatgina resurslarni ko‘paytirish - ekstensiv yo‘l hisobiga emas, balki mehnat unumdorligining har yili o‘rtacha 7-9 foizga oshishi - intensiv yo‘l hisobiga yuz bermoqda. Ya’ni, har bir birlik kiritilgan mehnat va kapital ko‘proq natija bermoqda.

Shu bilan birga, tizimda tarkibiy siljishlar va diversifikatsiya qonuniyati namoyon bo‘lmoqda. Sanoat rivojlanishining eng muhim qonuniyati - qayta ishlash sanoati ulushining izchil ortib borishidir. Jadvalga ko‘ra, ushbu ko‘rsatkich 80,3 foizdan 86 foizga ko‘tarilishi prognoz qilinmoqda. Bu multiplikativ zanjirning kengayishini anglatadi: xomashyoni qazib olishdan ko‘ra, uni chuqur qayta ishlash bosqichlarida qo‘shilgan qiymatning "ko‘paytiruvchi", ya’ni multiplikator effekti yuqori bo‘ladi. Tayyor mahsulot ishlab chiqarish zanjirining har bir yangi bo‘g‘ini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida, masalan xizmat ko‘rsatish, transport va logistika kabilarda qo‘shimcha talab va daromad yaratmoqda.

Jarayonda intensiv omillarning ustuvorligi ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mehnat unumdorligi o‘shish sur‘atining (105,4% dan 108,9% gacha) jadallashishi sanoatning modernizatsiyalashganidan dalolat beradi. Multiplikativ omillik modeli bo‘yicha tahlil qilinsa, umumiy o‘shishning asosiy qismi (taxminan 65-70 foizi) aynan mehnat unumdorligi va texnologik yangilanish hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa O‘zbekiston sanoatining xomashyoga asoslangan modeldan texnologik modelga o‘tish qonuniyatini isbotlaydi.

Ushbu o‘shishda investitsion multiplikator ta’siri muhim rol o‘ynaydi. Sanoat mahsuloti hajmining keskin ortishi investitsiyalarning multiplikativ samarasi bilan bog‘liq. Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar nafaqat yangi zavodlar qurilishiga, balki turdosh tarmoqlarda bandlikning oshishiga va aholi daromadlarining o‘shishiga zanjirsimon ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida sanoat mahsulotlariga bo‘lgan ichki iste’mol talabini rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Jadval tahlili shuni tasdiqlaydiki, O‘zbekiston sanoatida rivojlanishning “ekstensivdan intensivga” o‘tish qonuniyati amal qilmoqda. Multiplikativ bog‘liqliklar shuni ko‘rsatadiki, qayta ishlash sanoatidagi har 1 foiz o‘shish iqtisodiyotning umumiy barqarorligiga yuqori ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi drayver vazifasini bajarmoqda.

Sanoat tarmoqlari rivojlanish qonuniyatlarini tizimli o‘rganishda multiplikativ tahlil usuli alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu uslub ishlab chiqarish natijalarini nafaqat miqdoriy ko‘rsatkichlar, balki sifat o‘zgarishlari va omillar-aro bog‘liqlik orqali baholash imkonini beradi [2]. Mazkur yondashuvga ko‘ra, sanoat mahsuloti hajmining o‘zgarishi (ΔY) ikki asosiy yo‘nalish: ekstensiv (ishchi kuchi miqdori - B) va intensiv (mehnat unumdorligi - MU) omillarning o‘zaro multiplikativ ta’siri natijasidir [1].

O‘zbekiston sanoatining hozirgi holatini baholash uchun quyidagi multiplikativ modeldan foydalaniladi: $Y = MU \times B$

Tadqiqot davomida 2018-2025 yillardagi statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, sanoat mahsuloti hajmining 228,9 trln so‘mdan 1100 trln so‘mga yetishi (prognoz ko‘rsatkichi) iqtisodiyotda jiddiy tarkibiy siljishlar yuz berayotganidan dalolat beradi [3]. Ushbu o‘shish sur‘atlarini omilli tahlil qilish natijasida quyidagi

qonuniyatlar aniqlandi:

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mehnat unumdorligi multiplikatori asosida sanoatdagi umumiy o'sishning taxminan 62-65 foizi aynan mehnat unumdorligining oshishi hisobiga shakllanmoqda. Bu ko'rsatkich sanoat tarmoqlarida texnologik yangilanish va ishlab chiqarishni raqamlashtirish jarayonlari samaradorlikni oshirishning asosiy drayveri ekanligini tasdiqlaydi [5]. Shu bilan birga, bandlikning ekstensiv ta'siri natijasida sanoat o'sishining qariyb 35-38 foizi yangi ish o'rinlari yaratilishi va bandlar sonining ortishi bilan izohlanadi. Bu holat sanoatning aholi daromadlarini oshirishdagi ijtimoiy multiplikatorlik funksiyasini ifodalaydi [7].

Sanoat rivojlanishining muhim qonuniyati sifatida qayta ishlash sanoati ulushining 86 foizga yetishi, tarmoqlararo qo'shilgan qiymat zanjirining kengayishini anglatadi. Xomashyoni chuqur qayta ishlashning har bir yangi bosqichi iqtisodiyotda 3-4 baravargacha multiplikativ samara hosil qiladi [4]. Tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, O'zbekiston sanoati "resurs talab" modeldan "texnologik va bilim talab" modelga o'tish bosqichida turibdi. Bu jarayonda mehnat unumdorligining bandlikka nisbatan jadalroq o'sishi sanoatning sifat jihatidan rivojlanish qonuniyatini aks ettiruvchi asosiy multiplikativ ko'rsatkichdir.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ularning multiplikativ samaradorligini oshirish strategik ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari va xalqaro tajriba tahlili asosida eksport diversifikatsiyasi va yuqori texnologik eksport modeliga o'tish sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanadi. Sanoat rivojlanishining hozirgi qonuniyati xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o'tishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish uchun nafaqat narx omili, balki sifat va texnologik daraja muhim rol o'ynaydi [4]. Eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushining ortishi mamlakat iqtisodiyotining tashqi bozorlardagi konyunktura o'zgarishlariga nisbatan barqarorligini ta'minlaydi va multiplikativ daromadlar bazasini kengaytiradi.

Shuningdek, yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash orqali kimyo, oziq-ovqat va metallni qayta ishlash kabi yo'nalishlarda multiplikativ effektga erishish mumkin. Mazkur tarmoqlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali vertikal integratsiyalashgan zanjirlarni yaratish birlamchi resurslarni chuqur qayta ishlab, iqtisodiyotda yaratiladigan yalpi qo'shilgan qiymat hajmini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi [5].

Bundan tashqari, texnologik yangilanish va energiya tejamkorlik choralari ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot tannarxini kamaytirishga yordam beradi. Zamonaviy sanoatda energiya tejamkorligi samaradorlikning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, energiya sarfini optimallashtirish va "yashil texnologiyalar"ni qo'llash sanoat o'sishining multiplikativ koeffitsiyentini 1,2-1,5 baravargacha oshirishi mumkin [1].

Sanoatni modernizatsiya qilishning ushbu yo'nalishlari mamlakat iqtisodiyotining "resurs talab" modelidan "bilim va innovatsiya talab" modeliga to'liq

o‘tishini ta’minlaydi. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda sanoat tarmoqlarining global raqobatbardoshligini mustahkamlovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston iqtisodiyotining sanoat tarmoqlari rivojlanish qonuniyatlarini multiplikativ tahlil qilish asosida o‘tkazilgan ushbu tadqiqot quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Sanoat o‘shining sifat ko‘rsatkichlari: Omilli tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, 2018-2025-yillarda sanoat mahsuloti hajmining keskin ortishi (228,9 trln so‘mdan 1100 trln so‘mga) asosan intensiv omillar hisobiga yuz bermoqda. Sanoat o‘shining qariyb 62 foizi mehnat unumdorligi multiplikatori hisobiga to‘g‘ri kelishi, mamlakatda texnologik yangilanish va modernizatsiya jarayonlari samarali kechayotganidan dalolat beradi.

Tarkibiy o‘zgarishlar qonuniyati tadqiqot davomida qayta ishlash sanoati ulushining 86 foizga yetishi iqtisodiyotda qo‘shilgan qiymat zanjirining kengayishiga olib kelishi aniqlandi. Multiplikativ bog‘liqliklar shuni tasdiqlaydiki, xomashyo eksportidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tilishi turdosh tarmoqlarda ham zanjirsimon ijobiy ta’sir, ya’ni “multiplikativ ta’sir samarasini” hosil qilmoqda.

Investitsiya va bandlik balansi: Sanoat tarmoqlariga kiritilayotgan investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini, balki aholi bandligini ham multiplikativ tarzda oshirmoqda. Har bir yangi yaratilgan texnologik ish o‘rni sanoat unumdorligini oshirish bilan birga, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omili bo‘lib xizmat qilmoqda.

Olingan natijalar asosida sanoat samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha ba’zi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Vertikal integratsiyalashgan klasterlarni qo‘llab-quvvatlash, sanoatda multiplikativ samarani maksimal darajaga yetkazish uchun xomashyoni chuqur qayta ishlashning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi klasterlar tizimini kengaytirish zarur. Bu iqtisodiyotda qo‘shilgan qiymatning mamlakat ichida qolishini ta’minlaydi.

Innovatsion va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish esa mehnat unumdorligi o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish uchun sanoat korxonalarini raqamlashtirish va “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida modernizatsiya qilishni rag‘batlantirish lozim.

Eksport diversifikatsiyasini jadallashtirish orqali tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish orqali milliy sanoatning global raqobatbardoshligini oshirish va tashqi bozorlardagi multiplikativ daromadlar ulushini ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, sanoat tarmoqlari rivojlanishini multiplikativ baholash iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda muhim uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi va iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o‘shini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulkarimov B. Iqtisodiy tahlil. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
2. Савицкая Г.В. Экономический анализ. - Москва: Инфра-М, 2018.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Sanoat statistik ko‘rsatkichlari to‘plami. - Toshkent, 2024.

4. The World Bank. Uzbekistan Country Economic Update. - Washington, 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar. - Toshkent, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Sanoat ishlab chiqarish bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar. <https://www.stat.uz/>
7. UzDaily. Uzbekistan industrial production indicators (2021-2025).



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**